



Published on *Xalq Banki* (<http://xb.uz>)

---

## **Xalq banki besh tashabbus doirasida tadbir o'tkazdi**

Ko'rildi: 620

Yangilangan sana: Mon, Iyun, 10, 2019



**Joriy yilning 8 iyun kuni poytaxtimizdagi Yapon bog'ida Xalq banki tomonidan "Barkamol avlod - yurt tayanchi" shiori ostida bank xodimlari va ularning oila a'zolari ishtirokida madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil qilindi.**

Mazkur tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus doirasida tashkillashtirildi.

Ma'lumki, ushbu besh tashabbusda yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish hamda ularni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadi mujassamlashgan.

Albatta, mazkur tashabbuslar keng jamoatchilik bilan birga Xalq banki jamoasi tomonidan ham katta qiziqish bilan kutib olindi.



Bank tomonidan o'tkazilgan ushbu tadbir o'zaro hurmat, hamfikrlik va hamjixatlikka asoslangan boshqaruv tizimini yanada mustahkamligini namoyish etdi. Bank ravnaqi uchun sidqidildan faoliyat olib borayotgan bank hodimlarining oila a'zolari bilan birgalikda hordiq chiqarishlari uchun madaniy-ma'rifiy maskan bo'ldi.

Tadbirda taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlar, rassom va sportchilar o'zlarining konsert dasturlari bilan tadbirga o'zgacha kayfiyat ulashdi.



Bank xodimi - bu jiddiy qiyofa, rasmiy muloqot va rasmiy imij, bo'ynidan bo'yinbog'ini hech ham yechmaydigan shahs. Biz bank xodimi deganda dastlabki hayolimizga keladigan fikr bundan ortiq bo'lmaydi. Biroq bugungi tadbir ularni yangidan kashf etish, mehribon ota va ona ekanliklarini yana bir bor isbotlashga zamin yaratdi. Kelgusida mazkur tashabbuslarni yurtimizdagi barcha hududlarda mavjud Xalq bankining filiallari miqyosida keng targ'ib qilish rejalashtirilmoqda.

**Bank axborot xizmati**

---